

KOMPOZITOR I. BAXNING “MATFEY IZTIROBLARI” ASAR MISOLIDA – MUSIQIY ESTETIKASI

Abdug‘anieva Mohiniso Shukur qizi,
Musiqqa madaniyat fakulteti,
Vokal va Cholg‘u ijrochilik
kafedrasining II kurs talabasi

Muxamedziyanov Kamil Taxirovich,
Ilmiy rahbar, Musiqqa madaniyat
fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk kompozitor Iogann Sebastiyon Baxning ijodi yuzasidan fikr va mulohazalar bayon etilgan. Yuksak iste’dod sohibining eng mashhur asarlaridan biri “Matfey iztiroblari” to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi va qiyosiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Uyg‘onish davri, opera, orkestr, xor, ariya, messa, passionlar, rechitativ, vokal.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash inson huquqlari erkinlik va manfaatlarini amalda ta’minlash bozor iqtisodiyotini rivojlantirish orqali xalq farovonligini oshirish tashqi siyosat sohasida Markaziy Osiyo mintaqasida do‘stlik va hamkorlikni kuchaytirish dunyodagi aloqalarni rivojlangan mamalkatlar qatoriga qo‘shish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi [1].

Buyuk nemis kompozitori, mashhur organ ijrochisi, barokko davri hamda polifoniya uslubining yirik namoyondasi Iogann Sebastiyon Bax (1685-1750) o‘zining ijodida badiiy mukammal musiqiy asarlari bilan nemis musiqqa madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan [4].

Jahon musiqqa san’atida o‘chmas iz qoldirgan daho kompozitor Iogann Sebastiyon Bax nomi alohida o‘rin egallaydi. Bugungi kunda kompozitorning jahon musiqqa san’atida o‘rni va mavqei shu darajada yuqori baholanadiki, unga qiyoslab hech bir ijodkor nomi teng topilgan emas.

Kompozitor nemis organ musiqasini uyg‘onish davrining xor-polifonik san’ati, italyan va nemis skripka maktablarining yorqin va mahoratli bilimdon bo‘lgan.

Yangiliklarga va tabiatdan tinmay izlanishlarga shay bo'lgan ijodkor bu borada erishgan tajribalarini umumlashtirib takomillashtiradi, jahon musiqa san'atida erishilgan yutuqlarni jamlab, musiqa san'ati rivojida yangi istiqbolli yo'llarini belgilashda o'z ulushini qo'shadi.

Kompozitorning ijodiy merosi nihoyatda ulkan bo'lib 1000 dan ortiq turli janrlarga mansub asarlarni tashkil qiladi. Muallif asarlarini asosiy uchta janr guruhlariga bo'lish mumkin:

- vokal – cholg'u musiqa;
- organ musiqa;
- xilma – xil cholg'ular (klavir, skripka, fleyta, va hokozalar) va cholg'u ansambllar, orkestr uchun, musiqani tashkil etadi.

I.S.Bax asosan an'anaviy janrlarda ijod qilgan: messa va paasoinlar, kontatolar va oratoriyalar, xor uchun qayta ishlangan asarlar, preludiya va fugalar, raqs syuita va konsertlardir.

Musiqada kompozitor inson hayoti va taqdirining muhim va umrboqiy masalalari: inson qadr-qimmatini, uning burchi, hayoti va o'limi haqida fikr mulohazalar yuritiladi. Bu hayol surishlar asosan cherkov mavzulariga bag'ishlangan, negaki kompozitor hayotining aksariyat qismi cherkovga xizmat qilish, diniy qarashlarni targ'ib qilish, diniy musiqa yozish va targ'ib qilishga qaratgan. U juda xudojo'y inson bo'lgani bois umrini oxirigacha unga sodiq o'g'lon bo'lib yashadi. Nemis va lotin tilidagi muqaddas injil kitobi kompozitorning asosiy nur taratuvchi manbaiga aylandi.

Iso payg'ambar I. Bax ijodida markaziy qahramon va ma'buddir, uning aksida kompozitor insonning eng yaxshi fazilatlarini, xususan qattiyatli iroda, o'zi tanlagan yo'lga vafollik ezgu niyatlar aksini topgan.

Payg'ambar hayotining eng dilga yaqin sahifalari Golgofadagi osilishi va insoniyat hayoti uchun o'zini qurbon qilganligi mavzusi yotadi, bu mavzu I.S.Bax ijodida o'zining axloqiy, etik talqiniga ega bo'ldi.

Kompozitorning ijodi o‘z vaqtida zamondoshlari tomonidan ulug‘ligiga qarab munosib qabul qilinmagan. O‘z vaqtida asosan mohir organchi sifatida tanilgan I.S.Bax kompozitor sifatida u qadar shuhrat qozonmagan. Uning ijodi haqida tiriklik paytida tayinli bir jiddiy qo‘lyozma yozilmadi.

Faqat ijodining bir qismigina nashr qilinadi. I.S.Bax o‘zining eng yaxshi vokal –cholg‘u asarlari :ko‘pgina kantatalar (Bax tomonidan 250ga yaqin kontatalar yozilgan) “Iogan bo‘yicha iztiroblar “, “Matfey bo‘yicha iztiroblar “ (1729) “ Motam odasi “ (1727) “Minor messasi” (1738) yaratdi.

“Matfey bo‘yicha iztiroblar “ – Baxning eng monumental asarlaridan bo‘lib uning ustida u to‘rt yil mobaynida ishlagan. Asar prem‘erasi Avliyo Foma cherkovida (Leypsig) 1727-yili bo‘lib o‘tdi. Umuman kompozitor hayotlik davrida ular bir necha bor turli yillarda ijro etilgan [2].

“Matfey bo‘yicha iztiroblar” – ikki xorli kompozitsiya bo‘lib ikkita to‘rt ovoqli xor uchun mo‘ljallangan. Ularga jo‘rlik o‘rnida orkestr va organ kiritiladi, har birida o‘zining yakkaxonlari bor. Orkestr tarkibiga qadimgi cholg‘ular, masalan, violada gambu, goboy “d” amur kiritilgandir. Ikki xor birga va alohida kuyladi. Shu bois mazkur asarni ijro etilishi katta akustik xususiyat bo‘lishini taqazo etadi.

“Matfey bo‘yicha iztiroblar” ikki bo‘limdan iborat (biri ibodat vaqtida ikkinchisi undan so‘ng ijro etiladi) birinchi qism (№№1-35) Isoni maxbuslikka olinishi sahnasi bilan yakunlansa, ikkinchi qism (№№36-78) uning iztiroblari va vafoti haqida bayon qiladi.

Har bir qism bo‘limlarga ajaratiladi.

I qism:

1. dindorlarni til biriktirishi va Iuda xiyonati (№№2-12);
2. pinxon kechasi (№№13-23);
3. Gefsiman bog‘ida Isoning duosi (№№24-31);
4. Iudani Isoni maxbus qilinishida kelishi (№№32-35).

II- qism:

1. Ises tergovi, yolgʻonchilarni dalolati, Petra voz kechishi va pushaymon qilishi, Iudani oʻz joniga qasd qilishi (№№37-53);
2. Golgofaga yurish Iso vafoti (№№54-72);
3. Butdan Isoni yechib olinishi, marsiya (№№74-78).

Asarning №1 uvertyura vazifasini, №36 (alt va xor ariyasi) ikkinchi qism prologi vazifasini bajaradi.

Har bir boʻlim Yevangelist rechitativi bilan boshlanadi. Bu yerda boʻlayotgan voqealar haqida maʼlumot oʻrin olgan. Rechitativlar Yevangelist, Petr, Iuda, Pontiya Pilat nomidan keladi. Ularni bari secco rechitativ turiga mansub boʻlib, continuo rechitativlarida esa (joʻrlik) partiyasini organ bajaradi. Ularning fonida Isoning yorqin nutqi yangrab (yuqori bas): uning rechitati har gal torli kvartet joʻrligida keladi.

Asarda secco rechitativlardan tashqari joʻrlik rechitativlar ham mavjud-ariozo, ular, undan soʻng kelgan ariyalarga kirish qismidir. Ariozolarni vokal uslubi-opera amaliyotiga yaqindir. Ular orkestr joʻrligida, maʼlum yakkaxon cholgʻu bilan birgalikda ijro etiladi. Ariozolarni mazmunida boʻlayotgan voqealarni tavsiloti ularni muhokamasi oʻrin olib ulardan soʻng kelgan ariyalar ularga lirik-falsafiy yakun yasab beradi.

Ariyalar nomi boʻlmagan xor yakkaxonlariga taqsimlanib umumiy xis tuygʻular, qalb harakati aks etish uchun moʻljallanib ichki kontrastlardan yiroq. Koʻp ariyalar da capo anʼanaviy shaklda yozilgan. Ular orkestr va yakkaxonlar joʻrligida ijro etilib vokal-cholgʻu ansambllarga aylanib qoladilar.

Ariozo ariyalarga qardosh: a) ular Yevangeliya matniga emas balki erkin sheʼriy vaznga asoslanadi; b) yorqin melodik ifodaviyligi, shuningdek, ariya va ariozo oʻrtasida ularni orkestr mavzulari, umumiy vokal ovozlari va cholgʻular bilan bogʻliqlik rishtalari koʻzga tashlanadi. Ularning bunday birlashuvi “kichik polifonik turkumni” eslatadi, uning birinchi qismi nisbatan erkin boʻlib ikkinchiga muqaddima vazifasini oʻtasa, soʻnggisi mavzu va shakl tuzilishi boʻyicha bir muncha mukammaldir.

“Matfey bo‘yicha iztiroblar” eng jozibali ariyasi-№47, “Er barme dich” (“Raxm qil Tangrim!”). Bu asar butun asarning “tavba qilishning eng yuqori pallasidir (ammo asosiy fojiviy voqeliklar xali oldinda) bo‘lib, ariyadan avval Yevangelist Petrning voz kechishi haqida bayon qiladi, shu bois ariya musiqasi qayg‘udan alam chekkan Petr nidosi sifatida qabul qilinadi.

Alt ovozi skripkaning solo ovozi bilan omuhtaligida yangrab vokal-cholg‘u duetni tashkil qiladi. Musiqasi qayg‘uli h-moll, triolli-punktir usulida qadimgi sitsiliana raqsiga yaqin bo‘lib lamento ohangining o‘ziga hos ohanglarida tuziladi.

«Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo‘nalishdan iborat etib belgilandi. Bu – bejiz emas. Zero, ajdodlarimiz yetti raqamini baxt-saodat va omad keltiradigan, ezgu niyatni ro‘yobga chiqaradigan xosiyatli timsol, deb bilganlar» 2].

Xor nomerlari ikki turga bo‘linadi:

Yevangeliya matniga asoslangan xorlar (turbe).

Baxning libretisti (Pikander) tomonidan yozilgan erkin she‘riy vaznga asoslangan madrigal xorlari. Aksariyat xorlar birinchi turga kiradi. Ular aksariyat hollarda xajman zich, dramatik va harakatchan, polifonik usullar bilan rivoj topadi. Bu yerda asosan voqeliklar ishtirokchilari-Iso shogirdlari, ilk taqvodor odamlar, qo‘riqchilarning bevosita gaplari o‘rin olgan. Shunday qilib turbe xorlari harakatni dramatik rivojlantirishga ko‘maklashtiradi. Madrigal xorlari jami uchta – №1, №35 (butun birinchi qismga yakun yasaydi) va №78-yakuniy. Ularning har biri katta xajmi bilan e‘tiborni tortadi [3].

Qadimgi an‘analarga sodiq holda Matfey iztiroblari Golgofa tog‘iga yurish kabi dramatik harakat ko‘rsatishdan boshlanadi (№1 xor). Ikki xorning partiyasi turlicha talqin qilinadi: birinchi xor Isoni taqdiridan iztirobli ko‘z yosh to‘kkanlar bo‘lsa, ikkinchi xor - “kim?”, “nima?” va “qaerga?” so‘zlari bilan ommani voqeliklarni kuzatib borayotganini havola etadi. Kechroq yana bir xor partiyasi qo‘shiladi (ko‘pincha-o‘g‘il bolalar xori). Mazkur xor iztiroblar xaftasida ijro etilgan edi va Bax tomonidan uni asarga kiritilishi ma‘lum ramziy ma‘noni o‘zida

aks ettiradi. Yakunida xorlar birlashib qayg‘u alam va pushaymonlik hissiyotlarini aks ettiradi.

Yakuniy xor “Tinch tushda osuda yotgin “Iso payg‘ambar bilan oxirgi vidolashishi bo‘lib, uni tobutga qo‘yishini namoyon qiladi. Uning musiqasi elegik – hayotbaxsh ohanglarda tarrannum etiladi.

Xulosada shuni aytishim mumkinki - Mazkur maqolada bevosita musiqaga tegishli bir qator tushuncha ham tilga olingan. Xususan, O‘zbekiston san‘at va madaniyati yoshlar kelajagida muhim o‘rin olgan «Musiqqa madaniyati» darslarida jahon musiqqa madaniyatini keng foydalanishning muhimligi shundaki, asrlar mobaynida ulkan merosiga aylangan jahon musiqqa madaniyati yoshlar tarbiyasida foydalanish yuqori samara beradi. Shular bilan bir qatorda mashhur hofizlarimiz tomonidan yuqori saviyada ijro etilgan ashulalar o‘quvchilar ichki tuyg‘usiga, ulkan tarixiy merosi o‘quvchilar tafakkuriga qay darajada ijobiy ta’sir etishini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Chunki musiqqa insonning asab tizimiga ijobiy yordam beradigan tabiiy vosita.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent. Ma’naviyat nashriyoti 2008-yil.
2. Sh.M.Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent. O‘zbekiston 2017-yil.
3. M.Rizaeva “Yosh avlod keljagi buyuk davlat” Toshkent Cho‘lpon nashriyoti 2003-yil.
4. Asafev B. Музыкальная форма как процесс Л., 1977. 392s.
5. Vasina - Grossman V. Музыка и поэтическое слово - М., 1978. 298s.
6. Malmberg I. Узбекская музыкальная культура / Макоты. Рукотис. Т., 31.03.1954. 54s.